

**TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**TOSHKENT VILOYATIDA  
XIZMATLAR SOHASINING  
RIVOJLANISHI**

**2023- YILNING  
YANVAR-AVGUST OYLARIDA**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Xizmatlar sohasi



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –  
**19 623,5 mlrd. so'm**



Xizmatlar sohasida kichik biznesning  
ulushi – **69,7 %**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi – **6 526,6 ming so'm**



Xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samarali bandlik va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 371,0** mlrd. so'mga oshib, **19 623,5** mlrd. so'mga yetdi.


Taqqoslama ekvivalentda 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,0** %ni tashkil etdi. O'tgan yili ushbu ko'rsatkich **112,2** %ga to'g'ri kelgan.

Diskret qiymatlar bu – qiymatlari faqat ma’lum daqiqalarda, ma’lum vaqt oralig’ida (oy, chorak, yil) belgilangan, o’lchangan, hisoblangan ko’rsatkichlar.

2022- yil avgust oyiga nisbatan (**2 124,2** mlrd. so’m), 2023- yil avgust (diskret oy) uchun taqdim etilgan bozor xizmatlari hajmi (**2 616,8** mlrd. so’m) **492,6** mlrd. so’mga oshdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil avgust oyidagi xizmatlar hajmi 2021- yil avgustiga nisbatan **387,4** mlrd. so’mga oshgan.

### Ko’rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so’m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlar egallaydi. 2023- yil yanvar-avgust oylarida bu xizmatlarning ulushi **33,1** %ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (**22,6** %), moliyaviy xizmatlar (**14,9** %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**4,3** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**3,5** %)da qayd etildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %da (2023- yil yanvar-avgust)



2023- yil yanvar-avgust oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**25,3 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**24,2 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**15,9 %**), shuningdek, savdo xizmatlari (**6,3 %**) hamda shaxsiy xizmatlar (**5,2 %**)da qayd etildi.

### 2023- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini oshirishga xizmat turlari bo'yicha qo'shgan hissasi, %da





## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-avgust oylarida )	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, %da
	2022- y.	2023- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>16 252,5</b>	<b>19 623,5</b>	<b>108,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	535,9	675,8	124,2
Moliyaviy xizmatlar	2 116,8	2 915,4	125,3
Transport xizmatlari	3 793,2	4 441,4	101,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>3 484,3</i>	<i>4 189,5</i>	<i>106,4</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	631,8	839,2	104,4
Savdo xizmatlari	5 521,2	6 497,3	106,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	539,8	607,8	103,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	369,0	396,6	100,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	418,7	550,5	115,9
Ijara xizmatlari	472,3	520,4	101,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	368,0	439,7	104,5
Shaxsiy xizmatlar	494,9	597,6	105,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	391,2	408,9	96,2
Boshqa xizmatlar	599,7	732,9	114,4

Aholi tomonidan xizmatlar sohasining har xil turlariga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minladi.

Masalan, savdo ibtidoiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talabini yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.


Hozirgi vaqtda savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining muhim qismini tashkil etadi.




33,1

**2023-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari ulushi**

**O'sish sur'ati,  
%da**



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**






Hozirgi vaqtda Toshkent viloyatida dengiz hamda havo transportidan tashqari barcha zamonaviy transport turlari mavjud.

Viloyatda davlat hududi bo'ylab kesib o'tadigan temir yo'l tarmog'i mavjud. Shu bilan birga, avtomobil yo'llari tarmog'i ham rivojlangan.


2023- yil yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari hajmi **4 441,4** mlrd. so'mni tashkil etdi, ularning o'sishi 2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **101,5** %ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **22,6** %ni tashkil qilmoqda.



*O'sish sur'ati,  
%da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*








# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'sish  
sur'ati, %da



Xizmatlar  
hajmi,  
mlrd.  
so'm




Transport xizmatlari (2023- yil yanvar-avgust)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	131,2	101,0
Olmaliq shahar	302,9	107,4
Angren shahar	293,3	102,8
Bekobod shahar	250,7	109,5
Ohangaron shahar	70,2	99,9
Chirchiq shahar	353,8	102,3
Yangiyo'l shahar	189,3	101,0
Oqqo'rg'on tumani	89,3	101,4
Ohangaron tumani	74,8	108,0
Bekobod tumani	130,1	108,1
Bo'stonliq tumani	260,2	109,3
Bo'ka tumani	93,1	102,9
Quyichirchiq tumani	202,9	98,3
Zangiota tumani	237,2	107,1
Yuqori Chirchiq tumani	321,3	106,9
Qibray tumani	339,3	102,3
Parkent tumani	223,6	107,8
Piskent tumani	115,6	102,3
O'rta Chirchiq tumani	117,4	106,9
Chinoz tumani	156,3	104,2
Yangiyo'l tumani	299,1	100,3
Toshkent tumani	189,8	105,9

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.


2023- yil yanvar-avgust oylarida avtomobil transporti xizmatlari hajmi **4 189,5** mlrd. so'mni tashkil etdi, ularning o'sishi 2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **106,4** %ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **21,3** %ni tashkil qilmoqda.



*O'sish sur'ati,  
%da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*




Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.




### Moliyaviy xizmatlar (yanvar-avgust)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **798,6** mlrd. so'mga oshdi va **2 915,4** mlrd. so'mga yetdi. Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida **14,9** %ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **125,3** %ni tashkil etdi.


O'sish sur'ati,  
%da



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm



**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, %da**  
(2023- yil yanvar-avgust)




1. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar
2. Sug'urta bo'yicha xizmatlar
3. Yordamchi moliyaviy faoliyat


Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	86,7	106,0
Olmaliq shahar	324,1	112,7
Angren shahar	177,8	107,9
Bekobod shahar	136,6	114,9
Ohangaron shahar	40,9	104,8
Chirchiq shahar	306,1	127,3
Yangiyo'l shahar	97,3	106,0
Oqqo'rg'on tumani	53,4	106,4
Ohangaron tumani	30,2	113,3
Bekobod tumani	155,4	113,4
Bo'stonliq tumani	262,7	114,7
Bo'ka tumani	50,0	107,9
Quy Chirchiq tumani	86,8	103,1
Zangiota tumani	315,4	126,4
Yuqori Chirchiq tumani	82,3	112,2
Qibray tumani	311,8	107,3
Parkent tumani	92,3	113,1
Piskent tumani	49,3	107,3
O'rta Chirchiq tumani	38,5	112,2
Chinoz tumani	115,0	109,4
Yangiyo'l tumani	58,5	105,2
Toshkent tumani	44,3	111,1

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, iqtisodiyotning turli sohalarida mavjud bo'lgan tovar va xizmatlar bozorini kengaytirish va yangilarini barpo etish, oxir-oqibatda aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.


## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %da (2023- yil yanvar-avgust)



## O'sish sur'ati, %da



## Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm





## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-avgust)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	23,5	114,8
Olmalik shahar	31,2	122,0
Angren shahar	31,9	116,8
Bekobod shahar	19,5	124,4
Ohangaron shahar	10,5	113,5
Chirchiq shahar	51,1	116,2
Yangiyo'l shahar	9,8	114,8
Oqqo'rg'on tumani	22,2	115,2
Ohangaron tumani	21,8	122,6
Bekobod tumani	33,1	122,8
Bo'stonliq tumani	67,3	124,2
Bo'ka tumani	21,4	116,9
Quyichirchiq tumani	23,8	111,7
Zangiota tumani	51,5	121,7
Yuqori Chirchiq tumani	27,3	121,4
Qibray tumani	43,9	116,2
Parkent tumani	27,6	122,5
Piskent tumani	18,3	116,2
O'rta Chirchiq tumani	36,3	121,5
Chinoz tumani	33,5	118,4
Yangiyo'l tumani	32,3	113,9
Toshkent tumani	38,0	120,3

2023- yilning yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining yuqori o'sishi Bekobod shahar (**24,4** %), Bo'stonliq tumani (**24,2** %), Bekobod tumani (**22,8** %) hamda Ohangaron tumani (**22,6** %)da qayd etildi.


Ushbu xizmatlar hajmining nisbatan biroz o'sishi Quyichirchiq tumanida kuzatildi – **11,7** %.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-avgust)

O'sish sur'ati,  
%da




Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-avgust)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	8,0	100,1
Olmalik shahar	29,4	115,7
Angren shahar	25,3	110,8
Bekobod shahar	16,5	118,0
Ohangaron shahar	5,6	107,6
Chirchiq shahar	101,9	110,2
Yangiyo'l shahar	17,1	108,9
Oqqo'rg'on tumani	4,9	100,3
Ohangaron tumani	3,3	116,3
Bekobod tumani	5,9	116,5
Bo'stonliq tumani	8,3	117,8
Bo'ka tumani	6,4	100,2
Quyichirchiq tumani	7,4	105,9
Zangiota tumani	39,3	115,4
Yuqori Chirchiq tumani	12,9	115,2
Qibray tumani	59,2	110,2
Parkent tumani	12,1	116,2
Piskent tumani	3,7	110,2
O'rta Chirchiq tumani	3,4	115,2
Chinoz tumani	7,6	100,3
Yangiyo'l tumani	4,4	108,1
Toshkent tumani	14,0	100,1

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-avgust)

*O'sish sur'ati,  
%da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*




Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	16,0	102,7
Olmaliq shahar	25,2	109,2
Angren shahar	17,6	104,5
Bekobod shahar	21,4	111,3
Ohangaron shahar	3,6	101,5
Chirchiq shahar	47,6	117,0
Yangiyo'l shahar	10,1	102,7
Oqqo'rg'on tumani	4,0	103,1
Ohangaron tumani	1,2	109,7
Bekobod tumani	3,6	109,9
Bo'stonliq tumani	90,1	116,1
Bo'ka tumani	2,3	104,6
Quyi Chirchiq tumani	2,2	99,9
Zangiota tumani	111,6	118,9
Yuqori Chirchiq tumani	9,5	108,6
Qibray tumani	27,1	104,0
Parkent tumani	3,1	109,6
Piskent tumani	2,0	103,9
O'rta Chirchiq tumani	17,0	108,7
Chinoz tumani	16,0	105,9
Yangiyo'l tumani	18,2	101,9
Toshkent tumani	101,1	117,6






Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-avgust)


O'sish sur'ati,  
%da



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  
(2023-yil yanvar-avgust)



Hajm, mlrd. so'm

O'sish sur'ati, %da




Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
<b>Toshkent viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>19 623,5</b>	<b>108,0</b>
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	594,4	104,3
Olmaliq	1 419,7	110,9
Angren	1 273,2	106,1
Bekobod	965,8	113,0
Ohangaron	377,5	103,1
Chirchiq	1 581,6	105,6
Yangiyo'l	836,1	104,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	516,4	104,7
Ohangaron	302,4	111,4
Bekobod	599,9	111,6
Bo'stonliq	1 278,5	112,8

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda



Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Bo'ka	550,7	106,2
Quyichirchiq	445,6	101,5
Zangiota	1 951,5	110,6
Yuqorichirchiq	844,4	110,3
Qibray	1 623,5	105,6
Parkent	765,3	111,3
Piskent	311,2	105,5
O'rta Chirchiq	673,3	110,4
Chinoz	650,6	107,6
Yangiyo'l	907,9	103,5
Toshkent	1 154,0	109,3

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.




**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining  
asosiy ko'rsatkichlari  
(yanvar-avgust)**


2023- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 526,6** ming so'mga yetdi. 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,0** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 507,4** ming so'mni tashkil etgan.

**O'sish sur'ati,  
%da**




**Xizmatlar hajmi,  
ming. so'm**



2023- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha bu ko'rsatkich Zangiota tumanida **11 622,9** ming so'mdan Ohangaron tumanida **2 759,6** ming so'mgachani tashkil etdi.



### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust)






**2023- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




2022- yilning mos davriga nisbatan ular sonining kamayishi

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati



**2023- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**2023- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari**  
*(yanvar-avgust)*



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
Tel.: 71-202-86-72